



UDK:371.03.

Ozodaxon PIRMATOVA

Urganch davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi

E-mail: ozodaxon@gmail.com

SamDU professori Z.B. Boltayev taqrizi asosida

O‘ZBEK TILI SHOLICHILIK LEKSIKASINING MA’NODOSHLIK TURLARI

Аннотация

Mazkur maqolada o‘zbek tilining sholichilik leksikasining semantik nuqtayi nazardan tildagi paradigmatic a‘zolari o‘rtasidagi munosabat turlari xususida fikr-mulohazalar keltirilgan. Shuningdek, sholichilik mikrogruphiga tegishli so‘z-terminlar anglatgan ma‘no xususiyatlari va vazifalariga ko‘ra o‘ttizdan ortiq leksik-semantik guruhlarni tashkil qilgan holda, ularni har qaysisi o‘ziga xos konseptual xususiyatlar kasb etishi mantiqiy jihatdan dallilangan.

Kalit so‘zlar: Ma‘nodoshlik munosabati, jins-tur munosabati, butun-bo‘lak munosabati, darajalanish munosabati, vazifadoshlik munosabati, zidlik munosabati.

ВИДЫ СИМВОЛИЗМА В УЗБЕКИСТАНСКОМ ЛЕКСИКЕ

Аннотация

В статье излагаются мысли о типах отношений между парадигматическими членами языка с семантической точки зрения лексики рисоводства узбекского языка. Также было логически доказано, что термины, относящиеся к микрогруппе «рис», организованы в более чем тридцать лексико-семантических групп в соответствии с их семантическими свойствами и функциями, каждая из которых имеет свои уникальные концептуальные характеристики.

Ключевые слова: Отношения, связанные со значением, отношения род-вид, отношения целое-часть, отношения рангов, функциональные отношения, отношения конфликта.

TYPES OF SYMBOLISM IN THE UZBEKISTAN VERBAL LEXICAN

Annotation

This article presents thoughts on the types of relationships between paradigmatic members of the language from the semantic point of view of the rice-growing lexicon of the Uzbek language. It has also been logically demonstrated that the word-terms belonging to the rice microgroup are organized into more than thirty lexical-semantic groups according to their semantic properties and functions, each of which has its own unique conceptual characteristics.

Key words: Meaning-related relationship, genus-species relationship, whole-part relationship, ranking relationship, functional relationship, conflict relationship.

Kirish. Til madaniyatining yaratilish vositasi bo‘lib, uning rivojlanishi inson nutqida namoyon bo‘ladi, boshqacha aytganda “Odami odam qilgan, uni tamaddun bilan qovushtirgan, madaniyat arshiga olib chiqqan alomat omil ham, avvalo, til ekanligi e‘tirof etilgan haqiqatlardandir” [2].

O‘zbek tilidagi dehqonchilik leksikasi, jumladan, uning tarkibiy qismi sanalgan sholichilik terminologiyasi ana shunday quvvatga ega birliklardandir. Yurtimizda qadimdan qishloq xo‘jaligi keng rivojlangan. Insonlar asosiy tirikchilik manbai sifatida dehqonchilik bilan shug‘ullanishgan. Turli xil dehqonchilik mahsulotlari yetishtirilgan. Ayniqsa, sholichilik tadrijiy ravishda rivojlanib, guruchdan tayyorlangan taomlar Markaziy Osiyo xalqlarining asosiy taomiga aylangan. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish jarayonida turli xil ish qurollaridan foydalanilgan, qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq turli xil terminlar ishlatilgan va bugungi kunda ham xalq orasida guruch mahsulotini yetishtirish jarayonida sholi ekish, uni o‘rib olish, yanchish, omborga joylash, sholidan guruchni ajratib olish bilan bog‘liq turli xil terminlar ishlatiladi. Jumladan, sholi ekiladigan yer maydonlari dala deyiladi. Adabiy tilda ishlatiladigan dala so‘zi turli shevalarda atiz, mallak, polya terminlari bilan ishlatiladi.

Adabiyotlar tahlili. Tilda mavjud bo‘lgan har qanday leksik birliklar majmui makroguruhni tashkil etib, makroguruhlar o‘z navbatida ichki mikrogruphlarni hamda leksik-semantik guruhlardan tashkil topgani kabi qishloq

xo‘jaligi makroguruhi o‘z ichiga dehqonchilik, chorvachilik, pillachilik singari mikrogruphlarni qamrab oladi.

Dehqonchilik ham makroguruh sifatida polizchilik, mevachilik, sabzavotchilik, donchilik singari mikrogruphlarning yig‘indisidan iborat bo‘ladi. Donchilik ham o‘z navbatida bug‘doychilik, arpachilik, sholichilik, makkajo‘xori-chilik, tariqchilik, no‘xatchilik singari mikrogruphlarga bo‘linib ketadi.

Tahlil va natijalar. Ishimizning tadqiqot obyekti bo‘lgan sholichilik mikrogruphiga xos terminlar anglatgan ma‘no xususiyatlari va vazifalariga ko‘ra quyidagi leksik-semantik guruhlarni (keyingi o‘rinlarda LSG)ga bo‘lib o‘rganish mumkin:

1. Sholi navlarini va ular bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalovchi LSG: avangard, dubovskiy – 129, arpa-sholi, o‘zbekskiy – 5, superelita, arpa-sholi, rayonlashtirilgan nav, kechki nav, ertagi nav, urug‘lik sholi, elita urug‘, mahalliy nav, sholining navdor urug‘i, perspektiv navlar urug‘i, navdor urug‘, reproduksiya urug‘, reproduksiya urug‘ uchastkasi, urug‘chilik xo‘jaligi, urug‘lik maydoni, sholi urug‘i navdorlik guvohnomasi kabi.

Mazkur LSGni nominatsiya tamoyillari tarkibiga ko‘ra o‘z navbatida quyidagi ichki guruhlarga ajratish mumkin:

1) gidronimiya tarkibli nav nomlari (Jayhun navi, Dojdik navi);

2) etnonim tarkibli nav nomlari (o‘zbek sholisi, hind guruchi, qozoq sholi, yapon guruchi, koreys guruchi);

3) toponim tarkibli nav nomlari (Sholikor qo'rg'oni, Politotdel jamoa xo'jaligi (Yuqori Chirchiq tumani), Sholikor mahallasi (O'rta Chirchiq tumani), Sholichilik ilmiy tadqiqot instituti, Nukus-2 navi, Pokiston guruchi);

4) antroponim tarkibli nav nomlari (Natasha navi, Tolmas navi, Axmad sholi, Tursunboy navi, Iskandar navi, Rapan navi, Diamant navi, Flagman navlari);

5) sholining yetilish davriga ishora qiluvchi temperal leksika (yoki shu ma'noni anglatuvchi birliklar) tarkibli nav nomlari (UzRos -35, UzRos - 0275, o'rta pishar nav: o'rtacha tezpishar, kechpishar nav: o'rtacha kechpishar);

6) sholining shakliga ko'ra yuzaga kelgan nav nomlari (mayda donli sholi, kalta tilchali sholi, uzunqobiqli sholi, keng bargli sholi, ingichka bargli sholi, qisqa gulli sholi).

2. Sholi ekiladigan maydonni tayyorlashga xos jarayonlarni ifodalovchi LSG: yerni haydash, marza olish, ko'ndalang marzalar, yo'l ochish, chek (pol) olish, chek-pol, karta, shibbalash, marza olish, yo'l ochish, yer ishlovi, o'g'it tashib keltirish kabi.

3. Sholi urug'ini ekishga tayyorlash jarayoni bilan bog'liq LSG: oilaviy tanlash, rayonlashtirish, mahalliy nav, yalpi tanlash, donli va yorma o'simlik, boshlang'ich urug'chilik sxemasi, birinchi yilgi avlodni sinab ko'rish (urug'lik) ko'chatzori, superelita, elita ko'chatzori, yon ro'vak urug'i, donni yanchish, donni tozalash, superelita urug' yetishtirish, I va II klass urug' ekish, urug'ni oftobda qizdirish, quriq urug', ammoniy sulfat eritmasi ishlovi, pestitsidli parda qoplash kabi.

4. Sholi urug'ini ekish jarayonini ifodalovchi terminlar LSG: ekish davri, qatorlab ekish, shaxmat usulida ekish, samolyotda sholi ekish, seyalkada ekish, sochma ekish, ko'chat shaklida ekish, chorraha shaklida ekish, urug'ni tuproqqa ko'mish, zagon usulda sholi yetishtirish, taxtalarga bo'lish va hokazo.

5. Sholi ekishda qo'llanadigan texnik vositalar nomlarini ifodalovchi LSG: traktor, buldozer, ag'darma plug, chizel kultivator, zigzag borona, tirkalgan og'ir diskli borona, g'altaklash (katok yurgazish), don seyalkasi, borona sixi va boshqalar.

6. Sholi maydoni tuproq nomlari va ularning holatini ifodalovchi LSG: sho'rlanish, botqoqlanishi, yer sho'ri kamayishi, sho'rxok yer, sho'rlangan yer, sho'rlanmagan yer, yerni yumshatish, haydalma qatlam, yerni tekislash, yer obitobiga kelishi, g'altaklash (katok yurgazish), tuproq grundi, changsimon tuproqli (puxlyak) yer, kuchli darajada tuproq g'ovakligi, og'ir tuproqli yer kabi.

7. Sholining o'sish jarayonini ifodalovchi LSG: don bo'rtishi, urug'ning nish urishi, don yorilishi, urug'ning o'sib chiqishi, maysa, vegetatsiya davri, sholi to'liq pishishi, gul qobiq, qiltiq rangi, don rangi, ko'payish koeffitsienti, sholining yotib qolishi, sholipoyaning qurishi, don bo'rtishi, don unib chiqishi, yorilgan urug', maysa sekin o'sishi, vegetatsiya davri, urug' nish urishi, yetilish davri kabi.

8. Sholiga ishlov berish jarayonlarini ifodalovchi LSG: o'toq qilish, sug'orish, yagona qilish, dorilash kabi.

9. Sholi yetishtirishda foydalaniladigan asbob-uskunalar nomlarini ifodalovchi LSG: suv o'lchagich, reyka, nivelir asbobi, suv o'lchash novi, suv o'lchash nasadkasi, suv o'lchash ostonasi va hokazo.

Xullas, sholichilik bilan bog'liq terminlar guruhining har bir o'ziga xos konseptual xususiyatga ega.

XX asrning 70-yillari oxirlaridan o'zbek tili leksikasini sistema sifatida o'rganishga jiddiy e'tibor qaratildi. Leksik sistemani semasiologik hamda onomasiologik va nominasiologik nuqtayi nazardan tadqiq etuvchilar safi ham tobora kengayib bormoqda [5.34-38-b]. Jumladan, H.Ne'matov va R.Rasulovlarning "O'zbek tilining sistem leksikologiyasi asoslari" o'quv qo'llanmasida til birliklari o'rtasidagi munosabatlar o'xshashlik (paradigmatik)

munosabatlar; pog'onali (ierarxik) munosabatlar; qo'shnihilik (sintagmatik) munosabatlar tarzida uch turga ajratiladi [3.14-15-b].

Semantik nuqtayi nazardan tildagi paradigmatic a'zolari o'rtasidagi keng tarqalgan munosabat turlarini quyidagi guruhlariga bo'lib o'rganish mumkin:

Ma'nodoshlik (sinonimik) munosabati.

Jins-tur (giper-giponimik) munosabati.

Butun-bo'lak (partonimik) munosabati.

Darajalanish (graundonimik) munosabati.

Vazifadoshlik (funksionimik) munosabati.

Zidlik (antonimik) munosabati.

Tadqiqot natijasida o'zbek so'zlashuv nutqida ushbu termin quyidagi paradigmaga mansubligini ko'rsatadi: gilam → palos → julqirs → olacha → kigiz. Bu paradigmada gilam, odatda, yerga, polga to'shaladigan yoki bezak uchun uy devoriga osib qo'yiladigan buyum, palos ma'nosini ifodalasa, palos tuksiz gilam va umuman, yerga to'shaladigan buyum ma'nosiga ega [1.16-b].

Shunga qiyosan tadqiqot obyektimizdagi devizra termini Farg'ona vodiysi aholisi so'zlashuv nutqida palovbop guruch ma'nosida qo'llansa-da, sholi navlari bilan bog'liq quyidagi paradigmani hosil qiladi: devizra → kenja → alanga → nim dasta → koni gul. Sholining alanga, kenja, avangard navlari haqida ham shunday fikr bildirish mumkin. Bu misollar V.M.Nikitinning sistem-struktur tahlil chog'ida tushuncha mazmunini va tushuncha ko'laminii bildiruvchi kontensional va ekstensional terminlarning mohiyatini bilib olish foydadan holi bo'lmasligi [4] xususidagi fikrlari haqligini ko'rsatadi.

Ma'nodoshlik munosabati bo'yicha o'zbek tilshunosligida bir qator ishlar bajarilgan. Sholichilikda ham qisman bo'lsa-da ma'nodoshlik mavjud. Masalan, arpa sholi – devizra, ro'vak – metelka, muvozonat – balans, nish – jo'ja burun, jaydari – mahalliy kabilar.

Tadqiqot obyektimiz bo'lgan sholichilik terminlarining partonimiya (butun-bo'lak) bo'yicha tahlili beriladi. Masalan, sholi (butun) qismlari: poyasi, boshog'i, ro'vagi, ildizi va boshqalar. Sholi (butun) va uning etnonim bilan bog'liq qismlari: xitoy sholisi, hind sholisi, yapon sholisi, o'zbek sholisi, tojik sholisi, rus sholisi kabilar sholining bo'lak qismini hosil qilgan.

Sholining o'sish darajasi bilan bog'liq jarayonni ifodalashiga ko'ra butun-bo'lak munosabati quyidagicha: sholi poyasi (butun) va uning qismlari: ildiz, ro'vak, bargi, g'unchasi.

Gipo-giperonimik (jins-tur) tahlil bo'yicha sholi (jins), uning navlari avangard, lazur, alanga kabilar esa uning tur, ya'ni bir turga mansublikni ifodalaydi. O'z nabatida devizra (sholi navi) jins bo'lib, uning turlari Xonobod devizra, Xo'jobod devizra, jaydari devizra, Rishton devizra, So'x devizra, eski devizra, oq tuproq devizra, Cho'ng'ara devizra. Cho'ng'ara o'zi ham jins vazifasini bajarib, Cho'ng'ara devizra, Cho'ng'ara vizros, Cho'ng'ara eski sholi, Cho'ng'ara dasta, bug'doybosh cho'ng'ara, Cho'ng'ara elita singari birikmalar orqali uning turlari hosil qilingan. Xuddi shunday sholining "sholining kasalliklarga chidamliligiga ko'ra nomlari" (tur) jinslari: "Istiqbol", "Istiqlol", "Bug'doy boshog'", "Oq qiltiq", "Mustaqillik", "Iskandar", "Marvarid", "Ahmad sholi", "Guljahon", "Ilg'or", "Tursunboy" kabilar kiradi.

Graundonimiya (darajalanish) tahlilida sholining "yetilishi darajasiga ko'ra": erta pishar, o'rta pishar, kech pishishiga binoan farqlanishi darajalanishi tushuniladi. "Sholini sug'orish darajasiga ko'ra": qisqa muddat sug'orish, dam oldirib sug'orish, vaqti-vaqti bilan sug'orish, suv bostirib sug'orish. Yoki "sholini almashlab ekish jarayoni"ni ifodalovchi darajalanish: olti dalali, yetti dalali, o'n dalali. Sholi sug'orishda suv sarfini o'lchash gidrometrik postlardan foydalaniladi. Gidrometrik posti, ya'ni "suv o'lchash posti"

quyidagicha darajalanish xususiyatiga ega: tayanch post, bosh post, balans (muvozanat) post, taqsimlagich post, xo'jalik post, oqova post, maxsus post kabilar.

Xulosa. Demak, sholichilik mikrogruphiga tegishli so'z-terminlar anglatgan ma'no xususiyatlari va vazifalariga ko'ra o'ttizdan ortiq leksik-semantik gruphlarni tashkil qilgan

holda, ularni har qaysisi o'ziga xos konseptual xususiyatlar kasb etadi. Sholichilik mikrogruphining o'zaro ma'nodoshlik, jins-tur, butun-bo'lak, darajalanish munosabatga kirishuvi sohaga tegishli doir terminlarning ish jarayoni, mahsulot turi, navi hamda mintaqaviy xoslanish bilan bog'liqlikda namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Абдиев М. Соҳа лексикасининг систем таҳлили муаммолари.-Тошкент: Халқ мероси нашриёти, 2004. – Б.
2. Маҳмудов Н. Зариф сўз зиёрати. – Тошкент : Тубо нашр, 2023. – Б. 26.
3. Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари: Олий ўқув юрти талабалари учун қўлланма. – Тошкент, Ўқитувчи, 1995. – Б. 14-15.
4. Никитин В. М. Основы лингвистической теории значения. – М.: Высшая школа, 1988. – С. 31-32.
5. Қўчқортоев И. Сўз валентлиги // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1973. - №3. –Б. 34-38.